



ORIENTAL
UNIVERSITETI

“IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR” KAFEDRASI

ILHOMOVA DILDORA MUXAMMAD QIZI

“TARIX FANIGA OID TADQIQOTLAR – YOSHLAR NIGOHIDA” TALABALAR
ILMIY-AMALIY ANJUMANIDA NAMUNALI ISHTIROKI UCHUN

TASHAKKURNOMA

BILAN TAQDIRLANADI

18 fevral, 2026

**“TARIX FANIGA OID TADQIQOTLAR – YOSHLAR NIGOHIDA”
TALABALAR ILMIIY-AMALIIY ANJUMANI**

D A S T U R I

Moderator	PhD., Bobojonov Islombek Usmonaliyevich
------------------	--

Kirish va tabrik so‘zi:

Dr. Mamataxunov Nozimjon Azizovich <i>Oriental universiteti rektori</i>	10⁰⁰-10¹⁰
Malika Nasirova <i>Oriental Universiteti prorektori</i>	10¹⁰-10²⁰

Yalpi majlis dasturi:

1.	Kurbanov Sanjar (Tarix)- BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASINING MA’MURIY- HUDUDIIY BO‘LINISHI	10²⁰-10³⁰
2.	Mamarajabov Behruz (Tarix)- BXSR VA RSFSR O‘RTASIDA SIYOSIIY HUQUQIIY MUNOSABATLAR	10³⁰-10⁴⁰
3.	Xo‘jageldiyev Habibulla Maqsudjonovich (JIDU) – ISMOIL GASPIRALI VA UNING “ISLOM SIVILIZATSIYASI” ASARI HAQIDA	10⁴⁰-10⁵⁰
4.	Ilxomova Dildora (Tarix)- O‘ZBEKISTONNING TINCHLIK YO‘LIDAGI ROLI: HINDISTON VA POKISTON O‘RTASIDAGI HAMKORLIK	10⁵⁰-11⁰⁰
5.	Solixbekova Nozima Lutfillo qizi (Filologiya)- AYOLLAR MEHNATI EKSPLUATATSIYASI: SOVET GENDER SIYOSATIGA TANQIDIIY QARASH	11⁰⁰-11¹⁰
6.	Mahmudova Sofiya (Filologiya) - AFRIKADAGI ARAB MAMLAKATLARI TOPONIMLARI	11¹⁰-11²⁰
7.	Muhammadzimov Abdulbosit Abduvoxid o‘g‘li (Tarix) - USMONLI TARIXCHISIDAN TEMURIYZODA BADIUZZAMON MIRZOGA QADAR	11²⁰-11³⁰
8.	Marufjonov Muhammadkarim (Tarix) – MISR DAGI MAMLUKLAR SULTONLIGINI ISLOM OLAMIDAGI O‘RNI	11³⁰-11⁴⁰



O‘ZBEKISTONNING TINCHLIK YO‘LIDAGI ROLI: HINDISTON VA POKISTON O‘RTASIDAGI HAMKORLIK

Ilhomova Dildora

Tarix yo‘nalishi IV bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Rustamboyev Islomjon Doniyor o‘g‘li

Annotatsiya: Mazkur maqolada Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi tarixiy ziddiyatlar, xususan 1965-yilgi urush hamda 1966-yil 10-yanvarda imzolangan Toshkent deklaratsiyasining siyosiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Boburiylar davridan boshlab shakllangan tarixiy-madaniy aloqalar hamda Toshkentning xalqaro diplomatik maydon sifatidagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot O‘zbekistonning mintaqaviy tinchlikni ta‘minlashdagi tarixiy va diplomatik salohiyatini ko‘rsatishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Toshkent deklaratsiyasi, Hindiston, Pokiston, Kashmir muammosi, 1965-yilgi urush, Boburiylar imperiyasi, Sharof Rashidov, sovuq urush diplomatiyasi.

Аннотация: В статье анализируются исторические противоречия между Индией и Пакистаном, включая войну 1965 года и политическое значение Ташкентской декларации, подписанной 10 января 1966 года. Рассматриваются историко-культурные связи, восходящие к эпохе Бабуридов, а также роль Ташкента как международной дипломатической площадки. Исследование подчеркивает вклад Узбекистана в укрепление региональной стабильности и миротворческие процессы.

Ключевые слова: Ташкентская декларация, Индия, Пакистан, кашмирский конфликт, война 1965 года, империя Бабуридов, Шараф Рашидов, дипломатия холодной войны.

Abstract: This article examines the historical conflict between India and Pakistan, focusing on the 1965 war and the political significance of the Tashkent Declaration signed on January 10, 1966. It also highlights the historical and cultural ties dating back to the Mughal period and analyzes Tashkent’s role as an international diplomatic

platform. The study emphasizes Uzbekistan's historical and diplomatic contribution to regional peacebuilding and stability.

Keywords: Tashkent Declaration, India, Pakistan, Kashmir conflict, 1965 war, Mughal Empire, Sharof Rashidov, Cold War diplomacy.

Bugun so'z yuritiladigan masala nafaqat tarixiy, balki bugungi kun uchun ham juda muhim. Chunki gap yadroviy qurolga ega bo'lgan ikki davlat — Hindiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar va bu jarayonda O'zbekistonning, xususan Toshkentning tutgan o'rni haqida bormoqda. Men ushbu mavzuni tanlashimning sababi — O'zbekistonning nafaqat Markaziy Osiyoda, balki qo'shni mintaqalarda ham tinchlik o'rnatish borasidagi salohiyatini ko'rsatishdir.

Avvalo, bir haqiqatni unutmasligimiz kerak: O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi munosabatlar 1966-yilgi Toshkent deklaratsiyasidan ancha oldin boshlangan. Bu aloqalar tarixi 500 yil muqaddam, ya'ni 1526-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda asos solgan Boburiylar imperiyasi davriga borib taqaladi. Boburiylar imperiyasi 332 yildan ortiq davr mobaynida — 1858-yilgacha Hindiston yarimorolida hukmronlik qildi. Bu davr nafaqat siyosiy, balki madaniy va iqtisodiy aloqalar davri edi. Bobur Hindistonga kelgach, Markaziy Osiyoga xos bog' va me'morchilik an'analari joriy etishga intilgan. Shu maqsadda u o'z atrofiga Movarounnahr va Xurosondan kelgan ustalar, jumladan bog'bon va me'morlarni jamlagan. Shu tariqa Temuriylar uyg'onishi an'analari Hindistonda yangi uyg'onishga turtki berdi.

Boburiylar davri o'zbek va hind xalqlari o'rtasidagi tarixiy xotiraning shakllanishida muhim o'rin tutgan. Ushbu umumiy meros 1966-yilda Toshkentning muzokaralar maydoni sifatida tanlanishiga ma'naviy va ramziy asos bo'lib xizmat qilgan desak mubolaga bolmaydi.

1858-yil Boburiylar imperiyasi tarix sahnasidan ketdi va Hindiston Britaniya hukmronligi ostiga o'tdi. Bu davr 1947-yilgacha, ya'ni deyarli 90 yil davom etdi.

Mustamlakachilik davri Hindiston yarimoroliga ingliz ta'lim, huquq va boshqaruv tizimini olib kirdi. XX asrning boshlarida Hindiston yarim orolida

mustaqillik uchun kurash boshlandi. Milliy ozodlik kurashida hindlar va musulmonlar birgalikda harakat qildilar.

1947-yilda Buyuk Britaniya Hindistondan chiqib ketar ekan, yarimorolda diniy mutanosiblik asosida 2 mustaqil davlat Hindiston va Pokiston davlatlari tashkil topdi. Afsuski, bu bo‘linish juda og‘ir oqibatlarga olib keldi. Tarixchilarning baholashicha, millionlab odamlar majburiy ko‘chishga duch kelgan, yuz minglab insonlar esa bo‘linish jarayonidagi zo‘ravonliklar qurboniga aylangan.

Eng murakkab masala esa Kashmir knyazligi taqdiri edi. Aholisining 76.4% musulmon, ammo hukmdori hind bo‘lgan Kashmir ikkala davlat o‘rtasida asosiy nizo obyektiga aylandi va bu muammo bugungi kungacha o‘z yechimini topmagan.

Mustaqillikning ilk kunidanoq Hindiston va Pokiston o‘rtasida urush boshlandi. 1947-1948-yillardagi birinchi Hindiston -Pokiston urushi BMTaralashuvi bilan toxtatildi ammo Kashmir 2 ga bolindi: Hindiston Jammu va Kashmir yerlarini , Pokiston esa Azad Kashmir yerlarini boshqardi.

Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi 1965-yilgi qurolli ziddiyat Janubiy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va geosiyosiy barqarorlikka jiddiy tahdid soldi. Mojaro xalqaro hamjamiyatni ikki davlat o‘rtasida tinchlikni tiklash va kelgusidagi nizolarni diplomatik yo‘l bilan hal qilish zarurati bilan yuzma-yuz qildi. 1966-yil 10-yanvarda imzolangan Toshkent deklaratsiyasi ana shu ehtiyoj mahsuli sifatida tarixga kirdi.

Mazkur hujjat harbiy harakatlarni to‘xtatish, qo‘shinlarni urushdan oldingi pozitsiyalarga qaytarish va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish majburiyatini belgiladi. Muzokaralarning Toshkent shahrida o‘tkazilishi O‘zbekiston hududining siyosiy betarafligi va diplomatik ishonchliligi bilan bog‘liq edi. Natijada deklaratsiya nafaqat Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi qarama-qarshilikni yumshatdi, balki Toshkentning xalqaro diplomatiyadagi nufuzini ham namoyon etdi.

Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi ziddiyat 1947-yildagi mustaqillik va Britaniya Hindistonining bo‘linishi bilan boshlandi. Britaniya mustamlakachiligi

tugagach, hududda Hindiston va Pokiston davlatlari tashkil topdi. Bo‘linish jarayoni katta insoniy fojia bilan kechib, yuz minglab insonlar halok bo‘ldi, millionlab aholi majburiy migratsiyaga uchradi.

Asosiy nizo o‘chog‘i Kashmir hududi bo‘ldi. Aholining ko‘pchiligi musulmon bo‘lishiga qaramay, knyazlik hukmdori Maharaja Hari Singh Hindistonga qo‘shilish haqidagi hujjatni imzoladi. 1947–1948-yillardagi urush natijasida Kashmir amalda ikki qismga bo‘lindi.

1965-yilda vaziyat yana keskinlashdi. Pokiston prezidenti Muhammad Ayub Khan tashabbusi bilan “Gibraltar operatsiyasi” amalga oshirildi, biroq kutilgan qo‘zg‘olon yuz bermadi. Mojaro keng ko‘lamli urushga aylandi. Hindiston bosh vaziri Lal Bahadur Shastri mamlakat hududiy yaxlitligini himoya qilgan rahbar sifatida e‘tirof etildi.

BMT Xavfsizlik Kengashi aralashuvi bilan 1965-yil sentyabrda o‘t ochishni to‘xtatish to‘g‘risida rezolyutsiya qabul qilindi. Biroq nizoning tub sabablari saqlanib qoldi.

Urushdan keyingi siyosiy va iqtisodiy talafotlar ikki davlatni muzokaraga majbur qildi. Tinchlik tashabbusi SSSR Vazirlar Kengashi raisi Alexei Kosygin tomonidan ilgari surildi. Muzokaralar 1966-yil 4–10-yanvar kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tdi.

Jarayonda SSSR rahbariyati, jumladan Leonid Brezhnev, tashqi ishlar vaziri Andrei Gromyko hamda O‘zbekiston rahbari Sharof Rashidov muhim rol o‘ynadi.

1966-yil 10-yanvarda imzolangan deklaratsiyaga ko‘ra: 1) Qo‘shinlar 1966-yil 25-fevralgacha urushdan oldingi chiziqlarga qaytarilishi; 2) Har ikki tomon ichki ishlariga aralashmaslik; 3) Diplomatik aloqalarni tiklash; 4) Harbiy asirlarni qaytarish; 5) Savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirish belgilandi.

Shu tariqa, deklaratsiya mintaqaviy barqarorlikni tiklashga qaratilgan kompleks siyosiy hujjat sifatida qabul qilindi.

Shartnoma imzolangandan ko‘p o‘tmay, 1966-yil 11-yanvarda Lal Bahodur Shastri Toshkentda yurak xurujidan vafot etdi. Uning o‘limi Hindistonda turli

shubha va siyosiy talqinlarga sabab bo'ldi. Rasmiy tekshiruv materiallari to'liq oshkor etilmagani bahs-munozaralarni kuchaytirdi.

Shu bilan birga, Hindiston va Pokistonda deklaratsiya turlicha baholandi. Hindistonda ayrim doiralar kelishuvni yetarlicha qat'iy emas deb hisoblagan bo'lsa, Pokistonda hukumat Kashmir masalasida natijaga erishmaganlikda tanqid qilindi. Biroq tomonlar shartnoma shartlariga amal qildi.

Muzokaralar Toshkent shahrining tarixiy-madaniy salohiyatini namoyon etdi. Mehmondo'stlik va betaraflik muhiti muzokaralar jarayonini yengillashtirdi. Pokiston prezidenti Ayubxon Toshkentning iliq qabulini alohida ta'kidlagan.

Sharof Rashidovning diplomatik mahorati ham jarayon muvaffaqiyatiga hissa qo'shdi. O'zbekiston SSSR tarkibida bo'lishiga qaramay, Toshkent xalqaro miqyosda ishonchli muzokara maydoni sifatida e'tirof etildi.

1966-yilgi Toshkent deklaratsiyasi Janubiy Osiyodagi qurolli mojaroni to'xtatish va diplomatik muloqotni tiklashda muhim rol o'ynadi. Hujjat ikki davlat o'rtasidagi harbiy qarama-qarshilikni vaqtincha bo'lsa-da, bartaraf etib, mintaqaviy barqarorlik uchun asos yaratdi.

Shuningdek, mazkur voqea Toshkentning xalqaro diplomatiyadagi o'rnini mustahkamlab, O'zbekiston hududining tarixiy va siyosiy ahamiyatini namoyon etdi. Shu sababli Toshkent deklaratsiyasi nafaqat Janubiy Osiyo, balki sovuq urush davri diplomatiyasining muhim sahifalaridan biri sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Яковлев Л. А. Индо-пакистанский конфликт (1947–1971). – М.: Наука, 1975. – 312 с.
2. Галенко Ю. М. Пакистан и Индия: войны и мир. – М.: Восточная литература, 2003. – 368 с.
3. Гусева Н. Р. Кашмирский узел: история и современность. – М.: Институт востоковедения РАН, 2008. – 280 с.
4. Белокреницкий В. Я. История Пакистана. – М.: Весь Мир, 2010. – 544 с.

5. Бонгард-Левин Г. М. История Индии. XX век. – М.: Наука, 1989. – 620 с.
6. Князев А. В. Кашмир: война без конца. – М.: Центр стратегических исследований, 2012. – 304 с.
7. Богатуров А. Д. Индия и Пакистан: противостояние ядерных держав. – М.: Аспект Пресс, 2015. – 336 с.